

O`zbekiston Respublikasi
Oliy va O`rta maxsus ta'lim vazirligi
Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi
Andijon davlat universiteti
Ijtimoiy-iqtisodiyot fakelteti
Pedagogika psixologiya ta'lim yo'nalishi
III bosqich talabasi Nuriddinov Rasuljonning
“Umumiy psixologiya” fanidan

KURS ISHI

Andijon – 2016 yil

MAVZU: FAOLIYAT VA XULQ-ATVOR MOTIVATSIYASI.

Mundarija

Kirish qismi.

I.bob. FAOLIYAT VA MOTIVATSIYA PSIXOLOGIK VOQELIK SIFATIDA.

I.1-§.Shaxs faoliyatning umumiy xarakteristikasi.

I.2-§.Jahon psixologiyasida motiv va motivatsiya muamosi.

II. bob. MOTIVLAR KLASSIFIKATSIYASI

II. 1-§. Psixologiyada motivlar va ularni guruhlariga ajratish

II. 2-§.Motivatsiya: maqsad, emotsiya va qiziqish - Xulosa. -

Foydalanilgan adabiyotlar.

Kirish.

Mustaqil Respublikamizdagi ulkan iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy-mafkuraviy o'zgarishlar odamlar psixologiyasi qalbida ham o'z aksini topmoqda. Jamiyatning yangilanishi esa davlatning kelajagi buyuk bo'lishidan darak berib turibdi.

Yurtboshimiz Islom Karimov yoshlarga murojat qilib. –“ O'zimiz istagan zamon uchun kurashish, kerak bo'lsa o'zimizni, butun borlig'imizni berishimiz lozim. Shunday intilish bilan yashasak, nafaqat o'z hayotimiz, balki kelajak avlodlarimiz hayotini, ularning ertangi yorug' kunini o'zimiz, o'z qo'limiz bilan barpo etgan bo'lamiz ...

Shu nuqtai nazardan qaraganda, eng to'g'ri yo'l – ta'lim-tarbiya tizimini yanada rivojlantirish, yanada mustahkamlash yo'lidir . Biz bu yo'ldan hech qachon qaytmaymiz.“

Yurtboshimizning yuqoridagi fikrlarida milliy mafkuramiz asoslanadigan masalalar qatoriga xalqimizning ruhiyati, tafakkurini ham kiritib psixologlar oldiga ham vazifalar qo'ydi. Yuksak insoniy, umumbashariy his-tuyg'ular fuqarolar xatti-harakatlarining, fe'l-atvorlarining regulyatori (boshqaruvchisi) vazifasini (funktsiyasini) bajara boshlagan daqiqalardan e'tiboran umumiy, ijtimoiy-psixologik negizlarga asoslanuvchi ommaviy harakatlar, qarashlar, g'oyalar, motivatsiyalar namoyon bo'ladi va har bir insonda shu umumiyat ishiga o'zining shaxsiy ulushini qo'shish istagi, mayli, xohishi vujudga keladi. Mamlakatimiz fuqarolarining yurtimizda va uning tashqarisida sodir bo'laetgan ijtimoiy, ijtimoiy-psixologik voqelikka, shaxslararo va millatlararo muomala xususiyatiga, maromiga, umuminsoniy hamda milliy qadriyatlarga nisbatan munosabatlari ijtimoiy muhitni (makro, mikro, mezo) harakatlantiruvchi kuchni o'zida mujassamlashtiradi.

Xalq ommasining jamiyatga, tabiatga, yakka shaxsga nisbatan munosabatlari ehtiyojlarda, xohish-istaklarda, qiziqishlarda, xulq-atvor (faoliyat, muomala) motivlari yoki motivatsiyalarida, iymon-e'tiqodda, qarashlarda, g'oyalarda, milliy an'analarda o'z ifodasini topadi. Munosabatlar negizida esa inson ongidagi timsollar, tasvirlar, tasavvurlar, taassurotlar, kechinmalar, irodaviy xislatlar,

xarakter sifatлари, yuksak his-tuyg‘ular, aql-zakovat, barkamol shaxsning barqaror fazilatları yotadi. Milliy istiqloл mafkurasining mustaqilligi, mustahkamligi, barqarorligi, qudratlıligi mamlakatimiz fuqarolarining istagi, intilishi, faoliyat rejasi, xulq-odobi, muomala maromi, yaqqol vazifasi bilan bevosita uyg‘unlashuviga bog‘liq.

SHuni ta’kidlash joizki, insonning ijtimoiy hodisalarga, holatlarga, voqeliklarga nisbatan munosabatining psixologik mohiyati uning ongli, faol, yaxlit, maqsadga yo’naltirilgan, ijtimoiy shartlangan shaxsiy tajribasining tizimiga asoslangan muvaqqat aloqalarining hamda sub’ktiv jabhalarning majmuasidan iboratligidadir.

“Ta’lim qonun”i, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, “Milliy g‘oya va milliy istiqloл mafkurası” kabi davlat hujjatlarida motiv va motivatsiyaning roli masalasiga alohida e’tibor berilgan. Ma’lumki, bilimlarni ta’lim sub’ekti tomonidan o’zlashtirish, kasbiy amaliy ko’nikmalarni egallash, mutaxassislikka oid malakalar bilan qurollanish, shaxsni mustaqil fikrlashga, mustaqil faoliyatni tashkil qilishga o’rgatish, yuzaga kelayotgan vaziyatga muvofiq ravishda xulq-atvorni amalga oshirishga tayyorlanish motiv va motivatsiyasiz ro’yobga chiqishi mumkin emas. Jahon psixologiyasida motiv va motivatsiya muammolari atroflicha o’rganilganiga qaramay, ular etnopsixologik nuqtai nazaridan qariyb tadqiq qilinmagan. SHuningdek, turli o’quv fanlari negizida shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, ularning etnopsixologik xususiyatlari, motiv va motivatsiyanı takomillashtirish, ularni egallash uchun oqılona yo’llardan foydalanish o’qıtish, o’qish samaradorligini oshirishning kafolati sanaladi.

O’quv motivatsiyasini talabalarda shakllantirish oliy maktab psixologiyasi, pedagogik psixologiya tarmoqlarining markaziy va dolzarb muammolaridan biri bo’lib hisoblanadi. Xuddi shu bois hozirgi zamon ta’lim va tarbiya tizimining muhim jabhasi-motivatsiya(motiv) masalasini tadqiq etishdir. O’quv jarayonining motivatsion saboq oluvchilarida uzluksiz ravishda o’zgaruvchi, ba’zida tubdan zid tuzilishga ega bo’lgan turli xususiyatli turtki, qo’zg’atuvchi, hatto boshqaruvchi(regulyator) sifatida gavdalanadi. SHuningdek, etakchi, ustuvor,

dominant motiv o'rnini ta'limiy shart-sharoitlarga, vaziyatlarga bog'liq bo'lgan boshqa qo'zg'atuvchi, turtki, sabab(vaj) egallaydi. O'quv jarayonining muvaffaqiyatli, samaradorligi, mahsuldorligini ta'minlash uchun motivatsiya doirasi tuzilishini inobatga olish, uning har qaysi jabhasi, jihatiga ta'sir o'tkazishni nazarda tutish maqsadga muvofiq.

Ta'lim tizimini yuksak darajaga ko'tarish uchun talabalarda anglanilgan, yuqori ko'rsatkichli, indikator xususiyatli o'quv motivi va motivatsiyani shakllantirish davr talabi. Ma'lumki, faoliyat va xulq-atvor motivsiz, motivatsiyasiz faollikka, muayyan yo'nalishga, o'ziga xos mahsuldorlikka, muvaffaqiyatga ega bo'lmaydi. SHuning uchun turli yoshdagi saboq oluvchilarni motiv, motivatsiya mohiyati bilan tanishtirish mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini zaruriy sharti hisoblanadi. Motivlarning turlari, motivatsiyaning o'ziga xosligi, ularning tuzilishi, tarkiblari, ularni shakllantirishning muhim omillari yuzasidan talabalarga ma'lumot berish, ulardan foydalanish yo'l-yo'rig'larini tushuntirish-faoliyat sub'ktlarida individual uslubni egallashga mustahkam asos hozirlaydi.

I.Bob.1-§.Shaxs faoliyatning umumiy xarakteristikasi.

Faoliyat tushunchasi - istagan bir tirik organizmning faolligi, oqibat natijada uning ehtiyojlari tufayli yuzaga keladi va shu ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan bo'ladi. Odam ham shu jixatdan istesno emasdir. Anglab bo'ladigan yoki anglab bo'lmaydigan tabiiy yoki madaniy, moddiy yoki ma'naviy, shaxsiy yoki ijtimoiy ehtiyojlar odamda har turli shakldagi faollikni tug'diradi, bu esa odamning ijtimoiy munosabatlar va ijtimoiy ishlab chiqarish sistemasida organizm, individ va shaxs sifatida tarkib topishi, yashashi hamda taraqqiy etishini ta'minlaydi.

Odamning xatgi — harakati va uning ehtiyojlarini qondirish usullari. Agarda odamning xatti — harakatlarini va uning har turli shakldagi faolligini diqqat — e'tibor bilan olib qaraydigan bo'lsak, shu narsani aniqlaymizki, bularning hammasi odamning ehtiyojlariga bo'lgan munosabati hayvonlardagi munosabatdan printsiptial suratda boshqacha ekanligi ravshan bo'ladi.

Hayvonlarning xatgi—harakatlari uning ma'lum bir ehtiyojlarini qondirishga hamma vaqt bevosita qaratilgan bo'ladi. Ehtiyoj hayvonni faqat faollik ko'rsatishtagina undab qolmaydi, balki bu faollikning formasini ham belgilab beradi, qalb tashqi olamdan nimani ajratib, tanlab olishini va bu tanlab olingan narsaga nisbatan qanday javob harakat yuzaga kelishini hayvon organizmning talabi belgilab beradi.

Odamning xatgi — harakatlari tamoman boshqacha tarzda tashkil opgan.

Ehtiyojning bir o'zigina uning formalarini tug'dirib qolmay, balki ehtiyojlarni qondirishning jamiyat tomonidan qabul qilingan usullari xatti — harakat shakllarini belgilay boshlaydi.

Faoliyat va uning maqsadlari haqida tushuncha. Agar hayvonlarning xatti—harakatlari bevosita tevarak — atrofdagi muxit bilan batamom belgilansa, odamning faolligi esa ilk yoshlik davridan boshlaboq butun imkoniyat tajribasi va jamiyat talabi bilan boshqariladi.

Xatti - harakatlarning bu tipini atash uchun psixologiyada faoliyat degan alohida termin qo'llaniladi. Bu alohida, maxsus insoniy tipdagi faollikning o'ziga xos psixologik xususiyatlari nimadan iborat.

Shu o'ziga xos xususiyatlardan birinchisi shuidan iboratki, faoliyatning mazmuni ana shu faoliyatni yuzaga keltirgan ehtiyojning bir o'zi bilangina belgilanmaydi. Agar ehtiyoj faoliyatga motiv sifatida madad berib, uni rag'batlantirsa, faoliyatning o'z shakli va mazmuni ijtimoiy sharoitlar, ijtimoiy talablar hamda tajribalar bilan belgilanadi.

Inson faoliyatining mazmuni ehtiyojning yolg'iz o'zi bilangina belgilanmaydi, balki undan jamiyat talab qilayotgan biron maxsulotni tayyorlash maqsadi bilan belgilanadi.

Faoliyatning o'ziga xos dastlabki xususiyati shundaki, faollikning manbai bo'lgan faoliyat faollikni yaxshi anglab olingan maqsadi bilan boshqhariladi.

Faoliyatni qalb boshqharishning muvaffakiyatli bo'lishligi uchun, qalb narsalarning o'ziga xos ob'yektiv xususiyatlarini aks ettirishi va ana shular vositasi bilan o'z oldiga quyilgan maqsadlarga erishish yo'llarini aniqlashi lozim.

Faoliyatning hamma tomonlari, ya'ni uning motivlari; bajarish usullari, zaruriy ma'lumotlarni tanlab olish va ishlash anglanishi va anglamasligi ham mumkin.

Faoliyat tuzilishi. Faoliyat - voqelikka bo'lgan faol munosabatining shunday shaklini, u orqali odam yashab turgan olam bilan odam o'rtasidagi real aloqani o'rnatiladi. Odam faoliyat vositasi bilan tabiatga, narsalarga, boshqa kishilarga ta'sir qiladi. Inson ko'z o'ngida narsalar ob'yekt sifatida nomoen bo'ldai. Ish va harakatlar. Toshning ogirligini aniqlash uchun uni ko'tarib ko'rish kerak edi, atom bombasining quvvatini nomoyon qilish uchun esa uni portlatib ko'rish kerak edi.

Toshni ko'tarib ko'rib va bombani portlatib ko'rib, odam bu faoliyatlari orqali shu narsalarning real xususiyatlarini aniqlaydi. Odam o'zining ana shu real xususiyatlarini simvol vositasi bilan tasvirlash mumkin, aytaylik "tosh og'rligi" yoki bombaning quvvatini tegishli formula yordami bilan xisoblab ko'rsatishi mumkin. Lekin hamisha boshlanishda ish amaliy faoliyat turadi. Ana shu faoliyatda faqat tosh yoki bombaning xususiyatigina ma'lum bo'lib qolmay, balki odamning o'zining xususiyatlari ham aniqlanadi.

Narsalar bilan qilinadigan istagan bir ish makon va zamon bilan bog'liq

bo'lgan ma'lum harakatlardan tashkil topadi.

Odamning narsalar bilan qiladigan harakatlari taxlilining ko'rsatishicha, bu harakatlar tashqi jixatdan juda ko'p, har turi bo'lsa ham, odatda, bu harakatlarning hammasi uchta sodda elementdan tashkil topgandir.

— "olmoq", "joyini o'zgartirmok", "qo'yib yubormok", bu harakatlar odamning tanasi, oeklari va boshi bilan qilinadigan yordamchi harakatlar bilan birgalikda amalga oshiriladi.

harakatlar sistemasi ish maqsadi bilan bu maqsad yo'naltirilgan narsalar xususiyati va ish sharoit bilan bog'liqdir.

e) harakatni boshqarish va uni nazorat qilish.

Harakatning bajarqilishi va uning natijalarini erishiladigan privhard maqsad bilan taqqoslash yo'li bilan doim nazorat qilib boriladi va to'g'rilab turiladi.

Ana shunday kasallar xatto juda sodad harakatlarni ham muvaffakiyat bilan bajara olmaydilar.

Narsalar bilan qilinadigan ishlarni bajarish ma'lum harakatlar sistemasini amalga oshirish bilan cheklanmaydi. Bunday ishlarni bajarish zarur tarzda sensor nazorat va ish ob'yektlarining xususiyatlari hamda ularning odatdagi natijalariga mos ravishda harakatlarni to'g'riligini taozo qiladi. Bu jarayonni asosini tashqi muxitning holati, unda harakatlarning nomoen bo'lishi va natijalari haqida miyaga informatsiya beruvchi hissiy mo'ljallarni o'zlashtirish tashkil qiladi.

Ishini tarkibiy ismidan iborat bo'lgan harakatlar sistemasi, okibat natijasida, uning maqsadi bilan boshqhariladi va to'g'rilanadi.

Maqsad miyada, kelajakdagi faoliyat natijasida, dinamik modellning obrazi tarzida tasvirlangan bo'ladi.

y) faoliyatning interiorizatsiyasi va eksteriorizatsiyasi.

Miyaning oldindan ko'ra olishi uchun zarur imkoniyat tashqi olamning bitta printsipial xususiyati.tufayli, ya'ni uning qonuniyatlari tufayli yuzaga keladi. Buning ma'nosi shundan iboratki.tashqi olamdagi turli xodisalar ma'lum darajada o'zaro doimiy bog'liqdir, ma'lum sharoitlarda nomoen bo'ladigan biror mustahkam xususiyatga va tushimiga egadir.

Ob'yektlar bilan xodisalar o'rtasidagi bunday barqaror munosabatlarni ob'yektlarning muxim xususiyatlari va xodisalarning qonuniyatlari deb yuritiladi.

Tashqi real ishdan ichki ishga o'tish jarayonini interiorizatsiya deb yuritiladi.

So'z va aikiy simvollar bilan ishlash jamiyat tajribasi tomonidan tarkib toptirilgan odamning faoliyati va xulk — atvorini, tajriba va bilimlarini, ideallari va talablarini boshqharish imkoniyatini beradi.

Odamning faoliyati jamiyatning maqsadlari va talablari bilan ko'p jixatdan belgilanadi. Odam faoliyatining ko'zga tashlanib turadigan belgisi maqsadni anglash va uni amalga oshirishda qilinadigan ishlarning ijtimoiy tajribaga bog'liqligidir.

Odamning faoliyatida uning tashqi va ichki tomonlari ajralmas bog'liq bo'ladi. Od'm faoliyatining tashqi tomoni — tashqi olamga uning yordami bilan ta'sir ko'rsatadi. Bunday harakatlar motiv, bilim va boshqharish kabi ichki faoliyat-orqali aniqlanadi va boshqhariladi.

Bizga yuqoridan ma'lumki ichki qalb faoliyatni buyumlar bilan qilinadigan tashqi faoliyatining interiorizatsiyasi natijasi deb qarash mumkin.shunga muvofiq narsalar bilan qilinadigan tashqi faoliyatni ichki qalb faoliyatning eksteriorizatsiyasi deb qarash mumkin.

Faoliyatning turlari :

O'yi n faoliyati.Bola bir yoshga to'lgan yilidan boshlaboq unda faoliyatning eng sodda shakllarini egallash uchun shart—sharoitlar yuzaga kela boshlaydi.O'yin faoliyatining maqsadi ana shu faoliyat tufayli qo'lga kiritiladigan amaliy natijalar bo'lmay, balki amalga oshiriladigan faoliyatning o'zidir.Sof xolda o'yin faoliyati organizmning rivojlanishi bilan bog'liqdir. Bola narsalar, ko'rgazmallar bilan ikki suratda o'z amaliy hayotida narsalarning boshqa turlari, ya'ni o'yinchoqlar bilan to'qnash keladi.

Narsalar bilan bo'lgan harakatlar kishilarning narsalarga nisbatan qaratilgan vazifalari tariqasida yuzaga chiqa boshlaydi.

Rolli o'yinlar yuzaga keladi. Bola "doktor—doktor" o'yinini o'ynar ekan, u o'zini "xuddi doktordek" tutadi, qo'g'irchoqni yotqizadi, boshini chayqab senga

ukol qilish kerak va boshqa shu kabi so'zlarni aytadi. Bunda bolaning xatti harakatlari u foydalanayotgan narsalarning xususiyatlari bilan emas, balki doktorning vazifalari haqidagi tasavvurlari bilan boshqaradi.

Ijtimoiy belgisiga ko'ra u o'yinga uxshab qolsa ham, lekin qalblik strukturasiga ko'ra, faoliyat mehnati va o'qishga yaqinlashadi.

Ma'lumki o'yin faoliyatini hayvonlarning bolalarida ham kuzatish mumkin. Hayvonlarning yosh bolalarida kuzatiladigan o'yin faoliyatiga har xil narsalar bilan shug'ullanishni, yolg'ondakam urishishni, yugurishni va shu kabilarni kiritish mumkin.

Kuzatishlardan ma'lum bo'lishicha, o'yin faoliyatidan ayrimlari hayvonning tug'ma instinktiv harakatlari doirasiga kiradi, masalan: mushuk bolasining "sichqon ovlash" harakatlari. O'yin faoliyatining boshqalari esa taqlid qilishi natijasida yuzaga keladi, masalan: shimpanzening bolalari katta maymunlarning atrofidagi odamlar va xokazolar harakatlariga taqlid qiladilar. O'yin faoliyatining uchinchi bir turlarini hayvonlarning o'zlari atrofdagi tashqi muxit bilan bo'lgan munosabatlarida qidirib topadilar.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, bolalarda ham o'yin ularning hayotiy faoliyatlarini, faolliklarini amalga oshirish formalaridandir. Sof xoldagi "o'yin" faoliyati organizmning roxatlanishi bilan bog'liqdir. O'yin faoliyatini yuzaga keltiradigan sabab faoliyatiga bo'lgan ehtiyoj bo'lsa, uning manbai taqlid va tajribadan iboratdir. Biroq bolaning o'yin paytida qiladigan harakatlari avval kattalar raxbharligi ostida va kattalar bilan o'zaro munosabatda o'zlashtirilgan insoniy xatti — harakat formalari hamda narsalaridan insoniy foydalanish asosida rivojlanadi.

Bola narsalar — parallel suratda o'z amaliy hayotida narsalarning boshqa turlari, ya'ni o'yinchoqlar bilan to'qnash keladi.

Narsalar bilan bo'lgan (munosabat) harakatlar kishilarning narsalarga nisbatan qaratilgan vazifalari sifatida yuzaga chiqa boshlaydi. Rolli o'yinlar yuzaga keladi. Bola rolli o'yinlarda katta odamlarning ijtimoiy vazifalarini va katta odamlarning shaxs sifatidagi xatti — harakatlarini takrorlaydi.

Ta'lim faoliyati. Bolaning ish harakatlari va faoliyatlari taraqqiyotini qarab chiqqar ekanmiz, biz bir kardinal faktga to'qnash kelamiz. Bolada bir necha elementar shartsiz reflekslardan tashqari, biz keyinchalik kuzatishimiz mumkin bo'lgan hamma ish harakat va faoliyat turlari avval mutlaqo bo'lmaydi.

Insonning xatti — harakatlari biologik tajriba bilan belgilanmaydi, balki ijtimoiy tajriba bilan belgilanadi.

Ijtimoiy tajriba organizmning xususiyatlariga bog'liq bo'lmay, balki inson yashab turgan jamiyatning xususiyatlariga bog'liqdir.

Shunday bir vaqt keladiki, unda bolaning (faoliyatiga) hayotiga alohida faoliyat turi kirib keladi. Bu faoliyatning shunday turiki, uning bevosita maqsadi ma'lum informatsiyalar, harakatlar, va ish—harakatlar shakllarini o'zlashtirishdan iboratdir. Sub'yektning o'z maqsadi o'rganishdan iborat bo'lgan mana shunday maxsus faoliyatini ta'lim (o'quv) deb ataladi.

Ta'lim faoliyatini o'zi tajribaga quyidagilarni oladi:

a) ma'lum bir g'oya va amaliy faoliyat turini muvaffaqiyat bilan tashkil qilish uchun olamning zarur xususiyatlari haqidagi informatsiyalarini o'zlashtirish;

b) mana shu faoliyat turlarini yuzaga keltiradigan usul va operatsiyalarni o'zlashtirish;

v) ko'zlagan maqsad va berilgan masala shartiga mos ravishda to'g'ri yo'l va operatsiya tanlash hamda nazorat qilish uchun ko'rsatilgan informatsiyalardan foydalanish usullarini egallash.

Shunday qilib insonning ma'lum bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishda ongli maqsad bilan boshqariladigan barcha harakatlari ta'lim bilan bog'liq bo'ladi.

Kattalar bolaning kamolotiga faol ijtimoiy ta'sir ko'rsatuvchilardir. Ular bolaning faoliyati va xatti — harakatlarini tashkil qiladilar, bu harakat va faoliyatlarni insoniyat ijtimoiy tajribasi doirasiga tomon yo'naltiradilar. bolaning faoliyati va harakatlarini insoniyatning ijtimoiy tajribasini o'zlashtirish tomon yo'naltirishdan iborat bo'lgan bu faol jarayonni ta'lim deb yuritiladi. Buni bola shaxsining kamoloti nuqtai — nazaridan olinadigan bo'lsa,

unday paytda bu jarayonni tarbiya deb yuritiladi. Tarbiya, asosan quyidagi vositalar yordamida amalga oshiriladi: ko'rsatish va tushuntirish, rag'batlantirish va jazolash, vazifa berish va talab qilish, tekshirish va to'zatis.

Mehnat faoliyati. Mehnat ma'lum ijtimoiy foydali (yoki, xech bo'lmaganda, jamiyat tomonidan iste'mol qilinadigan) moddiy yoki ma'naviy maxsulot ishlab chiqarishga harakatiltan faoliyatdan iboratdir. Mehnat faoliyati odamning asosiy, yetakchi faoliyatidir. Agar mehnat qilishdan to'xtab qoladigan bo'linsa, insoniyat zoti o'z hayotini tugatgan bo'lar edi. Shular u mehnat faoliyatiga odamning yashashini ta'minlovchi, boshqa turlar ustidan g'alaba qozontiruvchi hamda tabiat kuchlari va narsalaridan odamni foydalandiruvchi maxsus insoniy xatti—harakatlar turi deb qarash mumkin. Kishilarning mehnat faoliyati o'z mohiyati e'tibori bilan ijtimoiydir. Jamiyat ehtiyojlari mehnat faoliyatini tarkib toptiradi, uni aniqlaydi, yo'naltiradi va boshqaradi.

2-§.Jahon psixologiyasida motiv va motivatsiya muamosi.

Yuqorida biz tanishib chiqqan faoliyat turlari o'z-o'zidan ro'y bermaydi. Shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy xulqi va o'zini qanday tutishi, egallagan mavqeyi ham sababsiz, o'z-o'zidan ro'y bermaydi. Faoliyatning amalga oshishi va shaxs xulq-atvorini tushuntirish uchun psixologiyada “*motiv*” va “*motivasiya*” tushunchalari ishlatiladi.

“*Motivasiya*” tushunchasi “*motiv*” tushunchasidan kengroq ma'no va mazmunga ega. **Motivasiya** – inson xulq-atvori, uning bog'lanishi, yo'nalishi va faolligini tushuntirib beruvchi psixologik sabablar majmuini bildiradi. Bu tushuncha u yoki bu shaxs xulqini tushuntirib berish kerak bo'lganda ishlatiladi, ya'ni: “nega?”, “nima uchun?”, “nima maqsadda?”, “qanday manfaat yo'lida?” degan savollarga javob qidirish – motivasiyani qidirish demakdir. Demak, u xulqning motivasion tasnifini yoritishga olib keladi.

Hozirgi zamon psixologiya fanida “*motivatsiya*” termini psixologik yangilanishlar, o'zgarishlar, holatlar, jarayonlar yig'indisini umumlashtiruvchi tur(jins) tushunchasi sifatida qo'llaniladi. Motivatsiya hayotiy muhim ahamiyatga ega bo'lgan tabiiy va ijtimoiy shart-sharoitlarga, jismlarga xulq-atvorni yo'naltiruvchi qo'zg'atuvchi tariqasida baholanishi mumkin. Chunki u pirovard maqsadga yo'nalganlikni, tanlovchanlik, fikr yuritishdagi g'arazgo'ylikni aniqlovchi psixik aks ettirish, shuningdek, uning yordami bilan faollikni boshqarish holati tasavvur qilinadi. Motivatsiyaning keng ko'lamda bunday talqin qilinishi uni turmushda odamlar tomonidan bevosita shunday tushunishga mos tushadi. Omma nima uchun jonli mavjudod aynan shunday xatti-harakatni amalga oshiradi, nega boshqacha yo'sinda ish tutmasligini izohlash imkoniga ega. Boshqacha so'z bilan aytganda, ushbu psixologik voqelik negizida xulq-atvorning sababiy shartlanganlik omili yotadi.

Motivatsiya mahiyati bo'yicha bildirilgan yuqoridagi fikr-mulohazalarga unga berilgan umumlashgan tariflar mutlaqo mutanosibdir:

1) Rubinshteyn S.L.: “Motivatsiya- bu psixika orqali amalga oshuvchi determinatsiyadir”

2) Madsen K.B. “Motivatsiya bu xulqqa yo‘naltirilgan, qo‘llab kuvvatlovchi, qo‘zg‘atuvchi omillarning yig‘indisidir”.

Yuqoridagi keng ko‘lamli ta‘riflar motivatsiya doirasining mavhumligi, shartligi, rasmiyligi va nisbiyligidan dalolat beradi. Shuningdek, ta‘riflarning rang-barangligi motivatsiya mohiyatiga kiruvchi, unga taalluqli muhim tushunchalarni ajratib olishga imkon beradi. Ko‘rinib turibdiki, har xil kontekstli yondashuvlar “motivatsiya” tushunchasining (tuzilmaviy, definitsiya mohiyati) muayyan tarkibiy qismlarga ajratishni qiyinlashtiradi. Xuddi shu bois unga berilgan xilma-xil ta‘riflar, bizningcha, rasmiyatchilik, shartlanganlik nuqtai nazaridan amalga oshirilgan psixologik voqelikka o‘xshab ketadi. Hatto jahon psixologlari “motivatsiya” tushunchasini “talab”, “intilish”, “qo‘zg‘ovchi”, “ehtiyoj”, “zaruriyat” kabi atamalar bilan almashtirishga harakat qiladilar. Bunday yondashuvlar, qarashlar, pozitsiyalar mavjudligi ta‘riflarning xilma-xilligini keltirib chiqaradi. Buning natijasida motivatsiyaning ma‘naviy va shakliy jihatlari orasidagi munosabatda chigalliklar yuzaga keltiradi. Lekin psixologiya kategoriyalarining “ichki reguliyator nuqtai nazaridan” tadqiqoti, ularni ma‘lumotlar bilan boyitish, yangi psixologik xususiyatlari va qirralarini ochish har qanday cheklanish yoki cheklanganlikni inkor etadi. Shuning uchun motivatsiyaga taalluqli terminlarni qo‘llash maqsadga muvofiqlikni ta‘minlashga xizmat qilsa, u holda qat‘iy qabul qilingan, saralangan tushunchalardan foydalanishga imkon tug‘diradi. Motivatsiyaga oid tushunchalar, atamalar, terminlar turlicha ma‘noda qo‘llanilishi bir tomondan uning yangi xususiyatlari yoki sifatlarini ochishga xizmat qilsa-da, lekin ikkinchi tomondan ilmiy izlanishlarda muayyan darajada qiyinchiliklarni vujudga keltiradi. Ushbu psixologik voqelik o‘ta munozarali omil sifatida talqin qilishga arziydi.

Sobiq ittifoq psixologi A.N. Leontev motiv, motivatsiya to‘g‘risida turlicha yondashuvlar, nazariyalar, ta‘riflar mavjud ekanligiga e‘tiroz bildirib, bu haqda u shunday mulohaza yuritadi: “Motiv” termini qo‘llanishida shu darajada xilma-xillik mavjudki, balki ularni tartibga keltirishning iloji ham yo‘qdir. “Motiv” terminini shu yo‘sinda qo‘llanilishi shunday ta‘sirot qoldiradiki, go‘yoki “motiv”

tushunchasi turlicha ashyolar joylashtirilgan katta qopga aylanib qolganga o'xshaydi. Motivlar yoki motivlashtiruvchi omillar qatoriga, jumladan ishtaha, mayl, impuls, odat, malaka, xohish, his-tuyg'ular, qiziqish, maqsad, hattoki yanada yaqqolroq motivlar, masalan, elektr toki bilan qitiqlash, huzr-halovat yoki mamnuniyatni sezish, o'ziga bino qo'yishlik, maosh, ideallar kiritiladi (kitob: Ehtiyojlar, motivlar va emotsiyalar, M., 1971, 14-bet).

Insonlarga aloqador motiv va motivatsiya tushunchalari qo'zg'atuvchilar va qo'zg'ovchilarning barcha turlarini o'z ichiga oladi, chunonchi, motivlar, ehtiyojlar, qiziqishlar, maqsadlar, intilishlar, motivlashgan ustanovkalar va boshqalar. Motiv va motivatsiya keng ma'noda xulq-atvor determinatsiyasi sifatida belgilanishiga qaramay, ko'pgina tadqiqotchilar ularni juda tor ma'noda tadqiq qilib, ilmiy jihatdan tekshiradilar, hattoki izlanuvchilar shartsiz reflektor aktlarining miqdorini, affektiv, stress va ekspressiv reaksiyalarni ularning tizimiga kiritadilar. Bir qator psixologlar motiv va motivatsiyani energetik; ma'noviy tomonlarini o'zaro solishtiradilar, tadqiqotchilar ularni tub ma'nodagi energetik bioquvvat faolligining manbai sifatida talqin qilib, ma'noviy va ma'naviy jabhalarni hisobga olmay turib tushuntirishga intiladilar.

Sobiq ittifoq psixologiyasida motiv va motivatsiya tizimi inson hayoti va faoliyatiga uzluksiz ravishda yo'naltirilgan murakkab tuzilishga ega bo'lgan boshqaruvchisi (regulyatori) sifatida tushuniladi. Jumladan, S.L.Rubinshteyn motivlashgan tizimning inson borliqni aks ettirishdagi rolini ko'rsatib, shunday mazmundagi mulohazalarni ta'kidlab o'tadi: birinchi bo'lib kuzatish ob'ektlari emas, balki ehtiyoj ob'ektlari va shaxs xatti-harakatlari beriladi. Motivlashgan ustanovkalarining faollikka oid o'ziga xosligi ham shunday tuzilishga ega va u o'zi xohlagan borliq elementlari va holatini belgilashga xizmat qiladi. Ularning fikricha, tashqi olamga munosabatning faol motivatsion xususiyatini ko'rsatib o'tishning o'zi kifoya. S.L.Rubinshteyn "ong- bu faqatgina aks etish emas, balki insonning tashqi muhitga nisbatan munosabati hamdir" deb yozadi.

S.L.Rubinshteyn ongning rolini ko'rsatish bilan bir qatorda psixikaning ko'p qirraliligi nuqtai nazaridan turli bosqichlarda ruhiy jarayonlarning vujudga kelishi,

kechishi holatlarini tushuntirib berishga erishgan. Har qanday shaxsning xulq-atvorini psixologik jihatdan tushuntirishda qo'zg'atuvchilar (qo'zg'ovchilar)ni turli bosqichlarda o'zaro murakkab bog'liqlikda olib qarash, ko'rish lozim, deb ta'kidlaydi. Bizningcha, bu ko'p bosqichli tuzilma boshqaruvning anglanilgan bosqichi singari anglanmagan motivatsion tendensiyalarni o'z ichiga oladi.

Sobiq ittifoq psixologlari motiv va motivatsiya tuzilishining bosqichli konsepsiyasini ishlab chiqishda quyidagilarga tayanganlar:

- 1) ongning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot jarayoni bilan inson xulq-atvorini boshqarishning murakkab tizimiga ega ekanligi;
- 2) ontogenezda shaxsning individual shakllanish jarayoni bo'lmish genetik dalillarga asoslanganligi va hokazo.

Motiv va motivatsiya tuzilishini genetik bosqichda tarkib topish ehtimolini tahlil qilish natijasida ularning sodda bir bosqichli tizimlardan murakkab, ko'p bosqichli yuksak darajaga o'sib o'tish jarayoni ishonchli omillar yordami bilan yaqqol ko'rsatib beriladi. Umumlashgan ma'lumotlarning ko'rsatishicha, motiv va motivatsiyaning tuzilishi muammosini tadqiq etilishi tufayli ularning dinamik va ma'noviy jabhalari birligi prinsipidan kelib chiqilish maqsadga muvofiq. Motiv va motivatsiya tuzilishiga oid masalaga yondashish jarayonida butun e'tiborni ularning mazmuniy jihatini alohida ko'rsatishga ma'noviy tomonlarining birlamchiligini belgilashga qaratiladi.

Inson xulq-atvor motivi va motivatsiyasi tuzilishini, ularning asosiy funksional mexanizmlarini hamda shakllanish jarayoniga yo'naltirishning strategik rejasini ishlab chiqish muammosini psixologik jihatdan tushuntirish uchun individning psixik rivojlanishi tahliliga o'ziga xos ravishda taktik yondashish maqsadga muvofiq.

Shaxs motivlari va motivatsiyasi oqimi muammosi uning ham metodologik, ham nazariy munosabatlarni tekshirish demakdir. Chunki to hozirgi davrgacha sobiq ittifoq psixologiyasida ularning ko'pgina qismlari, tomonlari o'z echimini topa olmagan.

Uzoq xorij psixologlari orasida “biologik ehtiyojlar asosida inson motivlari yotadi”, degan qarashlar majmuasi keng ko‘lamda qo‘llanilib kelinmoqda. CHunonchi, AQSHlik B.Damellning fikricha, to‘qimada vujudga kelgan ehtiyojlar qo‘zg‘atuvchining asosiy manbai hisoblanadi. Mazkur g‘oya yuzasidan mulohaza yuritgan Danlen esa “qo‘zg‘alish biologik to‘qimalardan chetga chiqmaydi”, degan fikrga qat’iy ishonadi. Gilfordning ta’kidlashicha, faollikning birlamchi manbai ovqatdan iboratdir. Lekin muallif o‘z fikrini izchil ochib berishga intilmaydi. Ushbu vaziyatni baholashda psixologik muammolar oqimi bilan motiv va motivatsiyalarning biologik oqimi o‘rtasida yuz beruvchi o‘zaro o‘rin almashishning sodir bo‘lishini mulohaza doirasidan tashqari chiqmasligi lozim. Chunki biologik shartlangan reja faollik manbai o‘zaro o‘rin almashish jarayonlari assimilyasiya va dissimilyasiya sifatida namoyon bo‘ladi. Holbuki biologik holatlar psixik jarayonlarning moddiy asosini tashkil qiladi. Xuddi shu bois ular birlamchi manba va psixik faollikning negizi tariqasida yuzaga keladi.

Jahon psixologiyasi fanida motivatsiyaning keng ko‘lamda o‘rganilishi natijasida u mazmun, ma’no, mohiyat jihatdan yanada kengaydi, original nazariy va amaliy materiallar bilan boyidi. Shuning bilan birga motivatsiya bir qancha mustaqil yo‘nalishlarga parchalanib ketishi tufayli uning tadqiqot predmeti quyidagilarga qaratila boshladi:

A) jabhalarga (ma’naviy, dinamik tomonlarga),

B) darajalarga (ijtimoiy, biolog, tag zaminii),

V) mexanizmlarga (mustahkamlash, yordam ko‘rsatish, siqib chiqarish va hokazolarga).

SHunday qilib, inson xulk atvorining determinatsiya qiladigan sabablar majmuasi hozirgi zamon motivatsiya psixologiyasi o‘rganadigan u yoki bu munosabatni o‘zida aks ettiruvchi, o‘ziga hos jabhalari va darajalarini bevosita va tag-zamin, genetik va vaziyatli, to‘g‘ri va teskari atamalar bilan nomlash imkoniyatini vujudga keltirdi.

Rus psixologiyasi fanida motiv va motivatsiya muammolari o'rganilishi

Motiv va motivatsiya muammolarini tadqiq etishda rus va sobiq ittifoq psixologlari o'zlarining munosib hissalarini qo'shganlar, jumladan, K.D.Ushinskiy, I.M.Sechenov, I.P.Pavlov, V.M.Bexterev, A.F.Lazurskiy, V.M.Myasishchev, A.A.Uxtomskiy, L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev, P.M.YAkobson va boshqalar.

XX asr boshlarigacha bo'lgan ijtimoiy-tarixiy davrning eng muhim va maxsus tadqiqoti L.I.Petrajitskiyning "Inson xatti-harakati motivlari to'g'risida" nomidagi Peterburg universitetida tayyorlagan ilmiy ishi hisoblanadi(1904). O'z izlanishida muallif motivatsiyaning ilmiy nazariyasini yaratish g'oyasini ilgari surish bilan birga uning psixologiya va boshqa fanlar uchun nihoyatda muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlab o'tadi. Uning mulohazasicha, shaxs fe'l-atvorini oqilona baholash uchun motivatsiyani hisobga olmaslik aslo mumkin emas.Xuddi shu bois u mazkur davr uchun huquqshunoslik (huquqni tushunish) motivlari masalasini o'rganish ijtimoiy zaruriyatligini qayd qiladi.Motivlar hal qiluvchi, harakatlantiruvchi mexanizm ekanligini ta'kidlaydi. SHunga qaramasdan, L.I.Petrajitskiy inson va uning motivatsiyasi muammosini psixologizatorlik pozitsiyasidan turib tahlil qiladi hamda sharhlaydi, lekin bu psixologik voqelik muallifning ilmiy chekinishi emas, albatta.

O'z zamonasining buyuk eksperimentatori A.F.Lazurskiy (23) psixik jarayonlar va shaxs xususiyatlarini tadqiq etayotganida motivlar masalasiga qiziqish bilan yondashadi. Buning uchun muallif o'z izlanishlarida "mayllar va xohishlar kuchi hamda zaifligi", "motivlar kurashiga moyilligi", "motivlar muhokamasiga tortilganligi", "xohishning qadriyatga ega ekanligi, aniq xususiyatliligi" singari kontekstlar orqali o'rganishga intiladi. SHuning bilan birga A.F.Lazurskiy intilish rivojining darajasi ongli irodaviy zo'r berish bilan bog'liq ekanligini alohida ta'kidlab o'tadi.Xuddi shu bois u shaxsning tadqiqot dasturida bunday munosabatlar tizimiga keng o'rin ajratadi. Muallif o'zining izlanish dasturida shaxsga ijtimoiy nuqtai nazaridan yondashishga harakat qilgan, lekin masala endopsixika va ekzopsixika nazariyalariga asoslangan holda

tushuntirganligi tufayli insonning ijtimoiy psixologik mohiyati, shaxsning biologik hamda ijtimoiy shartlangan jabhalari birligi, uyg'unligi o'z ilmiy ifodasini topmagan. Natijada uning mulohazalari mexanitsizm va biologizatorlik qobig'i bilan aralashib ketish holati mavjudligi sababli muallifni tub ma'nodagi ilmiylikdan bir muncha uzoqlashtiradi.

CHet el psixologiyasida motivlar va motivatsiyani o'rganishga bag'ishlangan qator materiallar mavjud bo'lib, ular jahon psixologiyasiga katta hissadir. Hozirgi davrda chet el psixologiyasida o'ttizga yaqin konsepsiyalar, nazariyalar ishlab chiqilgan, ularning aksariyati hayvonlar va odamlar xulq motivatsiyasiga bag'ishlangandir.

/arb psixologiyasida motivatsiya muammolari Spinoza, Gobbs, Dekart asarlaridayoq o'z ifodasini topgan. Ushbu masalalar bilan assotsionistik, introspektiv, bixeviorizm, geshtaltpsixologiya, psixoanaliz psixologiya maktablarining namoyandalari keng ko'lamda shug'ullanganlar (U. Djeyms, E. Tolmen, K. Xall, K. Levin, Z. Freyd va boshqalar).

Bixeviorizm nazariyasiga binoan xulq motivi tashqi ta'sirga tana a'zolarining javob reaksiyasi sifatida vujudga keladi ($A+SH$). Jahonga mashhur bo'lgan "Stimul-reaksiya" formulasiga asoslangan bixevioristlar instinktiv xulq motivini insonning fe'l-atvoriga mexanik ravishda ko'chirishni anglatib keladi. Ularning talqiniga qaraganda, inson xulqi ongsizlikdan iborat bo'lib, tashqi qo'zg'atuvchi "stimul" tufayli tana a'zolarining javob reaksiyasi tariqasida yuzaga keladi.

Bixeviorizmning asoschisi Dj. Uotson psixologiyaning asosiy vazifasi xulqni tadqiq qilishdan iborat deb tushuntirishga harakat qildi. U psixik holatlarni tekshirishdan voz kechib, xulqni ichki va tashqi shakllarga ajratdi va ular stimul bilan javob sifatida bevosita o'zaro bog'langandir. Muallif uchun "xulq" asosiy tushunchaga aylanadi, buning oqibatida uning psixika bilan aloqasi odatiy narsa deb baholanadi.

Bixevioristlarning fikricha, psixologiyaning predmeti psixika emas, balki reaksiyalar majmuasi bo'lmish xulqdir. Hozirgi zamon bixevioristlari stimulni tashqi qo'zg'atuvchi sifatida qaraydilar, tana a'zosining ichki quvvatini

faollashtiradi deb tushunadilar. Neobixevioristik konsepsiyalarda yangi turtki (qo'zg'ovchi) larning paydo bo'lishi (drayv) insonning organik ehtiyojini qondirishning stimul natijasi bilan muvofiqlashuvi tariqasida talqin qilinadi.

V.M.Daugall Darvinning biologik determinizm ta'limotini vulgarlashtirib, motivatsiyani tug'ma xususiyatini asoslashga, tug'ma instinkt bilan uni qiyoslashga intiladi. Buning uchun muallif oldin 14 ta, keyinchalik esa 18 ta inson instinktlari hukm surishini ajratib ko'rsatadi va ularni sharhlab beradi. Uning karashlari o'zgarishga yuz tutgan bo'lishiga qaramay, bu sohaga oid talqinlar qolaverdi, bunga instinkt energiyasi tug'maligi, impulsivligi g'oyalari bixevioristik konsepsiyadan tashqariga chiqishga imkon bermaydi.

Psixanalitik konsepsiya bixeviorizmdan farqli o'laroq, motivatsiyaning negizida insonga xos bo'lgan mayllar yotishini tan oladi. Buning manba sifatida maylni tortuvchi tana a'zosining qaysi bir qismidagi somatik jarayon tushuniladi. Freyd nazariyasida mayl bilan instinkt alohidaligi ko'rsatib o'tilmagan, bu esa o'ziga xos yondashuvdir.

Ongsizlik ta'limotining asoschisi Z.Freyd xulq ehtiyoji va motivlari muammosini ishlab chiqqan bo'lib, uningcha, motivatsiya manbai tur va individning saqlash instinkti hisoblanadi. Bizningcha, insonning ijtimoiy tabiati, uning ijtimoiylashuvi nuqtai nazaridan yondashishni talab etsa, u holda ongsizlik va onglilik munosabati o'zaro bir-birini taqozo qiladi.

Motivatsiyaning talqini geshtaltpsixologiya maktabida o'ziga xos xususiyatga ega.Jumladan, K.Levin motivlarni eksperimental o'rganish metodikasini ishlab chiqqanda ularni mutlaqo mustaqil hukm suradi, degan fikrga keladi. Geshtaltpsixologiyasida obraz kategoriyasi qanday tushunilgan bo'lsa, K.Levin o'zining "maydon (makon) nazariyasida" motivni xuddi shunday kategoriya sifatida qo'llaydi. Obraz bilan motivni o'zaro aloqasi inkor qilinadi, vaziyatning jismlari ma'noviy mazmuni va uning doirasidagi motivatsiya tan olinmaydi. Muallif xulqni tushuntirganda, shaxsning favquloddagi vaqt mikrointervalida yaqqol muhit bilan bevosita munosabatidan kelib chiqadi.Xulqning shaxsga oid konstatlari hamda shaxsning xususiyatlari inobatga olinmaydi.Xuddi shu bois motiv

kategoriyasidan shaxs kategoriyasiga o'tish muammosi aslo amalga oshirilmaydi. K.Levin Z.Freyddan farqli o'laroq, "organizm-muhit" tizimi bo'yicha motivlarni tajribada tekshirib, mavjud ta'limotni rivojlantirishga o'z hissasini qo'shadi. Uning nazariyasida motivatsiya tug'ma va egallangan (o'zlashtirilgan) ikki xil ko'rinishga ega bo'lib, uning birinchisi hayvonlarga, ikkinchisi esa insonga taalluqlidir. Ushbu talqin bahsli fikrlar uyg'otishga moyil.

E.Tolmen xulq aktida motivning roli dominantligini dalillash uchun bixeviorizm, geshtaltpsixologiya, freydizm nazariyalarini birlashtirib, ularga introspeksiya prinsiplarini kiritib mulohaza yuritadi. Lekin sub'ektivizm holatlarining o'rni to'g'risidagi mulohazalar bahsbopdir.

G.Ollport o'z asarida personalistik yo'nalishning namoyandasi tariqasida inson motivatsiyasi mohiyatini ochishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni tatbiq etish g'oyasini ilgari suradi. Uning o'zini o'zi namoyon qilish nazariyasida shaxs motivatsiya sub'ekti tariqasida tahlil, talqin qilinadi. O'zining shaxs konsepsiyasini bayon qilishda uni "ochiq tizim" sifatida talqin qilib, motivatsiyaga undovchi doirada motivning quyi (biologik ehtiyoj) va yuqori (rivojlanish) darajalariga ajratadi.

Ollportning nazariyasi motivatsiya rivojiga qo'shilgan muayyan hissa bo'lib sanaladi. Motivatsiya mohiyatini yoritishda shaxsga qaratilgan yo'naltirilgan yondashuvni asoslab berish uchun motiv shaxsda o'zak ekanligini ta'kidlaydi, lekin ularning ijtimoiy-tarixiy sharoitlar bilan aloqasi mavjudligini diqqat-e'tibordan chetda qoldiradi.

E.Daffi o'zining xulq motivatsiyasini faollashtirish nazariyasida, jumladan, "Xulq aktivatsiyasi" asarida bixevioristlar ichida birinchilardan bo'lib, motivatsiya muammosini tadqiq qilish g'oyasini ilgari suradi. Ushbu nazariya xulq yo'nalganligi (xulqning faollik) orqali ifodalanishi mumkin. Xulq intensivligi va uning aktivatsiyasi darajasini o'rganishda bosh miya po'sti bilan sklet muskullari funksiyalari o'rtasida korrelyasion munosabatlar indikatorlar sifatida qabul qilinadi. Daffi faollik bilan stimul o'rtasida moslik borligi yoki moslik yo'qligi muammosini tekshirishga intiladi. Uning fikricha, stimul bilan reaksiya bilish bilan

faollashish jarayonlari o‘zaro o‘rin almashib turadi. Muallifning asosiy maqsadi motivatsiyani aniqlash uchun aktivatsiya va uning yo‘nalishini ham tekshirishdan iboratdir. Xulk aktivatsiyasi bo‘yicha motivlar masalasiga birinchi marta fiziologik yondashuv amalga oshirilgan.

D.Bindra o‘zining motivatsiya nazariyasini yaratishda B.Skinnerning bixevioristik, D.Xebbnining fiziologik konnsepsiyalaridan foydalanadi. “Motivatsiya-sistematik reinterpretsiya” nomli kitobida uni erishgan yutuqlari umumlashtirilgan. D.Bindraning tasdiqlashicha, xulk-odatning kuchi bilan aniqlanadi. Odatda retikulyar formatsiyadan kelayotgan aktivatsiya darajasiga, miyaga boruvchi qonning fiziologik tarkibi ta’sir qiladi. U motivatsiyani fiziologik tushuntirib berish bilan birga unga ta’sir etuvchi sub’ektiv jabhalarni (ichki stimullar va xulqning o‘zlashtirilgan kodlarini) ham ta’kidlab o‘tadi.

D.Bindra motivni ochlik, seks, o‘yin, qo‘rqinch tuyg‘ulari bilan bog‘lab o‘rganadi. Olingan natijalarga asoslanib, u xulqni ikki shaklga ajratadi: vaj-sababga asoslangan va maqsadga yo‘naltirilgan. Bizningcha, motivatsiyaga organizm funksiyasi (fiziologik holat) shunchalik katta ta’sir o‘tkazishi to‘g‘risida mulohazalar o‘ta bo‘rttirilgandir. CHunki har qaysi xatti-harakat oldida maqsad, motiv turadi, shuning uchun ularni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yish ham adolatdan emas, albatta.

D.Berlaynnining motivatsiya nazariyasi natijalari “Nizo, faollashish, hayratlanish”, “Tafakkurni tuzilishi va yo‘nalishi” kabi asarlarida joy olgan. Muallif motivlar mohiyatini ochishda ehtiyojga bevosita murojaat qiladi va uni bir necha xil ma’noda talqin etadi. Birinchidan, ehtiyoj- bu faollik va faoliyat darajasini aniqlovchi shart-sharoit (energetik tasnif yoki ehtiyojning energetik samarasi). Ikkinchidan, ehtiyoj- bu aniq javoblarga yordam beruvchi ichki holat yoki ularning tanlovchiligini (selektivligini) aniqlovchi. Uchinchidan ehtiyoj- bu mukofot olishga aloqador sharoit mazmuni. Muallif motivatsiyaning murakkab psixofiziologik sxemasini yaratadikim, bunda ehtiyoj organizm javoblarini aniqlashga xizmat qiladi (u tuzilmaviy birlamchi qo‘zg‘atuvchi bilan potensial uzviy aloqadadir).

Turli xil axborot va ma'lumotlar shaxs tomonidan qabul qilinadi yoki qabul qilinmaydi, mabodo qabul qilinmasa, u taqdirda kognitiv dissonans vujudga keladi.

Festinger motivatsiyani insonni qurshab turgan borliqni bilish bilan aloqada uyg'unlik tarzda olib qaraydi. Uning dalillashicha, dissonantlar (nomutanosibliklar) mavjud bo'lganida dissonans holati vujudga keladi, konsonant holatida (munosiblik) esa namoyon bo'lmaydi.

Festinger nazariyasining an'anaviy bixevioristik sxemadan farqi shundaki, u motivatsiyani bilish, kognitiv jarayon bilan uyg'unlikda tadqiq qiladi.

V.Kettellning motivatsiya konsepsiyasi o'ziga xosligi bilan boshqa yondashuvlardan ajralib turadi. O'zining ilmiy imkoniyatlarini u "SHaxs va motivatsiya", "Tuzilma va o'lchash", "Motivatsiya nazariyasi", "SHaxsning ilmiy tahlili" singari asarlarida sinab ko'rgan. Muallif aksariyat intellektual faoliyatini test ishlab chiqish jarayoniga bag'ishlagan.

Uning tasdiqlashicha, xulq- bu organizm va tashqi ta'sirning natijasidir. Inson xulqini tahlil qilayotib, u qobiliyat, temperament, dinamik qiyofa (xulqning faolligi, kuchi) ga ajratadi. Tizimning oxirgisi ergik ehtiyojlar (tug'ma reaksiyalar omillari) va sentimentlar (o'zlashtirilgan, o'rgatilgan reaksiyalar) tarkibiga kiradi.

Kettell taklif qilgan sxema shaxsni quyidagi darajalarini o'ziga qamraydi: munosabatni qamrovchi "hissiy" (xotinning prichestkaga, biznesga, do'stlariga, prezidentga, cherkovga), "Sentimentar" (xobbiga, vataniga, siyosatga, partiyaga, xudoga), "Ergik" (taajjublanish, ochlik, tashnalik, g'azablilik) holatlar.

Xulqning motivatsion tarkibi temperament tuzilmasi bilan temperament va hissiyotlar bilan aloqadordir. "Ergik" (erg- grekcha – ish, quvvat) daraja instinktga, zaruratga, ehtiyojga qarama-qarshi qo'yiladi. Erg – motivatsiyaning o'zgaruvchan tasniflovchisi. Ergik zo'riqish, uning darajasini stimul va individning xususiyati, fiziologik holat, ideallar va boshqalarni aniqlaydi. Uning mulohazasicha, motiv-rag'batlantiruvchi ehtiyojdir. Kettell o'zining motivatsiya nazariyasida ijtimoiy va biologik jabhalarni, fiziologik va psixologik tomonlarni birlashtirishga harakat qiladi. Biroq u ijtimoiy omilni aniqlovchi mezon sifatida ajratib ko'rsatmaydi.

Binobarin, inson ehtiyojlari determinirlashganligini hisobga olmagan holda uni talqin qiladi.

I. Atkinson va K. Berchlarning motivatsiya to'g'risidagi ma'lumotlari "Erishuv motivlari" kitobida o'z ifodasini topgan. Ular o'z nazariyalarini "aksiltarixiy" va "aksilfiziologik" deb nomlaydilar. Jumladan, Atkinson motivatsiyaning bir nechta "tillar" ga ajratadi; eksperimental, neyrofiziologik, bixevioristik (xulqiy), matematik.

K. Levin va E. Tolmen qarashlariga asoslangan Atkinson xulqini ikki o'zgaruvchidan iborat deb qaraydi: a) nimanidir kutish; b) motivga aylanuvchi qadriyat, unga erishishning o'zi- bu erishuvga muhtojlidir.

Atkinson bilan Berch nazariyasining yangiligi shuki, unda reaksiyalar tahlil qilinishi o'rniga harakatlar, shu jumladan, verbal harakatlar tadqiq etiladi. Ta'sir etuvchi stimullar motivlar, ularning ahamiyatliligi, baholanishiga bog'liq holda qaytadan barpo qilinadi. Bu narsa harakatning tasnifi, samarali holatlarini aniqlash uchun xizmat qiladi. Mualliflar xulqning ijtimoiy determinatsiyasini tan olmaydilar.

Jahonda mashhur ilmiy yondashuvlardan biri- bu A. Maslouning motivatsiyaning "personologik" konsepsiyasidir. U o'zini gumanistik psixologiya yo'nalishining namoyandasi deb hisolaydi, shuning uchun bixevioristlarga va ekzistensialistlarga qarshi kurashuvchi "uchinchi kuch" ekanligini ta'kidlaydi. "Motivatsiya va shaxs" kitobida "SHaxsning o'zini o'zi faollashtirish" qarashlar rivojlantiradi. Individning uzluksiz kamolotga intilishini u etakchi motiv baholaydi. Bu bilan muallif ijtimoiy determinatsiyani inkor qiladi.

Maslouning fikricha, motivlarni aniqlovchi, bir necha darajalardan tashkil topgan ehtiyojlar mavjuddir. Xulq ehtiyojlar va qobiliyatlarga bog'liq bo'lib, u ichki va tashqi motivlar bilan belgilanadi.

Muallif tomonidan ehtiyojlarning quyidagi darajalari ajratib ko'rsatiladi: birinchi daraja – fiziologik – ozuqaga, suvga, gomeostazni saqlashga nisbatan ehtiyoj; ikkinchi daraja – ozodlikka, xavfsizlikka nisbatan ehtiyoj; uchinchi daraja

– sevgi (muhabbat)ga nisbatan ehtiyoj; to‘rtinchi daraja – maqsadga, erishuvga yo‘naltirilgan ehtiyoj; beshinchi daraja o‘zini o‘zi faollashtirishga nisbatan ehtiyoj.

A.Maslouning ta’kidlashicha, yangi ehtiyoj yuqoridagi ehtiyoj darajalarining barchasi qoniqtirilgandan keyingina paydo bo‘lishi mumkin. Ularning ichdan eng yuqorisi – bu o‘zini o‘zi faollashtirishdir.

Mazkur nazariya jamiyat va shaxs ikki parallel ravishda hukm suruvchi mohiyat degan tushunchadan kelib chiqishiga qaramay, unda shaxs antropologizirlashtiriladi hamda psixologizirlashtiriladi. SHaxsning ijtimoiyligi tan olinsa-da, ammo biologik xususiyatga aloqadorligi birlamchi belgi sifatida qolaveradi. O‘zini o‘zi faollashtirish qobiliyati esa, uning mulohazasicha, qandaydir tabiiylik alomati tariqasida baholanadi.

SHunday qilib, biz yuqorida xorijiy psixologlarning motivatsiya muammosiga bag‘ishlangan tadqiqotlari natijalari bilan tanishib chiqdik. Aksariat mualliflar shaxsni biologizirlashtirishga intilishganliklari tufayli uning faollik manbalarining oddiy turtkisi bilan tenglashtiradilar. Go‘yoki oddiy instinktlar, reflekslar inson xulqining tarkibiy negizlari bo‘lib hisoblanadi. Bu talqinga binoan ular motivlarni maqsadga muvofiq shakllantirish imkoniyatini rad qiladilar, motivatsiya ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot jarayonida o‘zgarishga yuz tutishini inobatga olinmaydi. Natijada xulq motivlari ijtimoiy shartlanganligi, ularning ijtimoiy xususiyati tadqiqotlarning diqqat markazidan va idrok ko‘lamidan chetda qoladi.

II. bob. MOTIVLAR KLASSIFIKATSIYASI

II. 1-§.Psixologiyada motivlar va ularni guruhlarga ajratish

Psixologiya fanida motiv va motivatsiya kategoriyalari shaxs tuzilishining mag‘izi (negizi) bo‘lib hisoblanadi. Sobiq ittifoq psixologiyasida ularni faoliyatga bog‘lab (A.N Leontev, S.L.Rubinshteyn, V.D.SHadrikov, K.A.Abulxanova-Slavskaya), shaxs muammosi bilan uyg‘unlashtirib (L.I.Ansiferova, V.G.Aseev, L.I.Bojovich, A.G.Kovalyov, E.S.Kuzmin, S.L.Rubinshteyn) va ustanovka bilan aloqadorligi (D.N.Uznadze, SH.N.CHxartishvili) bo‘yicha tadqiq qilingan. Xuddi shu munosabatlarga binoan ularga berilgan ta’riflar ham rang-barangdir.Biz ta’riflarni tahlil qilish ushbu qo‘llanma predmetiga kirmaganligi tufayli ularga to‘xtashni ortiqchadir, deb hisoblaymiz.

Mazkur muammoni atroflicha o‘rganib, motivga quyidagicha ta’rif berishni maqsadga muvofiq deb topdik: “xatti-harakatga va faoliyatga undovchi shaxsning anglashilgan xususiyati hisoblanuvchi, ehtiyojni aks ettirishning yuksak shakli sifatida paydo bo‘luvchi ichki turtki motiv deb ataladi”. Bu o‘rinda undovchi turtki ehtiyojni qondirishga intilish sifatida talqin etiladi. Bizningcha, muomala, xatti-harakat va faoliyat motivlarining majmuasi motivatsiya deyiladi. “Motivatsiya doirasi” tushunchasi shaxsning muhim bo‘lagi, uning negizi sifatida muayyan tartibdagi motivlar tizimini ifodalovchi element tariqasida tahlil qilinadi. “Motivatsiya doirasi” tushunchasi motivatsiyani sistemalik ierarxik tushunishni aks ettiruvchi shaxs motivlari ekanligining ma’noviy tuzilishini tavsiflashda qo‘llaniladi, xolos.

Motivlar ehtiyoj negizida vujudga keladi, rivojlanadi va takomillashadi. Biroq ehtiyoj paydo bo‘lishi bilan bir davrda uni shakllanish bosqichlariga o‘xshash darajalarni bosib o‘tish orqali motiv vujudga keladi. Motiv mazkur negizda vujudga kelib, barqarorlashib, ehtiyojning mustahkamlanishiga yordam beradi va o‘z navbatida ehtiyojlarning barqarorlashuvi motivatsiyaning samarali shakllanishini ta’minlashga xizmat qiladi. Odatda inson faoliyati va harakatiga ta’sir o‘tkazuvchi jarayonda o‘zaro bog‘liq holda ehtiyoj tomonidan motiv va

maqsad aniqlanadi (belgilanadi). Harakat faoliyatning tarkibi bo'lganligi sababli faoliyat maqsadi va motivi bilan boshqariladi. Lekin psixologiyada "Motiv – faoliyat", "Maqsad – harakat", "SHaroit – operatsiya" munosabatlari o'rtasida qat'iy aloqa (uyg'unlik) hukm surmaydi.

Lekin ehtiyoj bilan motivning uzviy aloqadorligi ularning mustaqilligiga va o'ziga xosligiga salbiy ta'sir etmaydi. Ularning uyg'unlashuvi bir-birini inkor etishni keltirib chiqarmaydi, balki o'ziga xos voqelikni ifodalash bilan ular o'zaro farq qilishadi. Ba'zan psixologiyada "motiv" tushunchasini "ustanovka", "emotsiya", "maqsad", kabi atamalar, terminlar bilan almashtirish hollari ham uchrab turadi. Goho "motiv" turtki, qo'zg'ovchi, undovchi kabi terminlarga ayniyashtiriladi. Ularning birisi fiziologik, ikkinchisi esa psixologik boshqariluv xususiyatiga ega. SHuning uchun ularni aralashtirilib yuborish ilmiy xatolarga olib kelishi mumkin.

Motivlar ehtiyojlarni aks ettiruvchisi, harakat va faoliyatning boshqaruvchisi bo'lganligi sababli ularni shaxsning dinamik xususiyati tarkibiga kiritish mumkin. Motivlar xuddi shu boisdan shaxsning yo'nalganligi, maqsadga intilganligi bilan uzviy aloqadadir. Yo'nalganlik motivga nisbatan kengroq ko'lamga ega bo'lgan tushuncha hisoblanadi. Yo'nalganlik motivlar vujudga kelishiga ta'sir qiladi va o'z navbatida motiv yo'nalganlik shakllanishiga yordam beradi. Barqaror motivlar tizimi mavjudligi yo'nalganlik shakllanganligidan dalolat beradi. Yo'nalganlik maqsadga intilishni ifodalasa, motiv yordami bilan maqsadning qo'yilishi aniqlanadi.

V.I.Kovalyov tomonidan tavsiya qilingan motivlarni turkumlarga ajratish XX asr psixologiya fani uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Mualliflar takliflariga asoslanib, ularni bir necha guruhlariga ajratish mumkin.

Birinchi guruhga taalluqli motivlar shaxsning ijtimoiy ehtiyojlari bilan aloqador bo'lib, ular mohiyatining mezoni bilan o'lchanadi:

- 1) g'oyaviy motivlar (dunyoqarashga aloqadordir);
- 2) siyosiy motivlar (tashqi va ichki siyosatga munosabatning shaxs pozitsiyasi bilan bog'liqligi);

- 3) axloqiy motivlar (axloq normalari va prinsiplariga asoslanadi);
- 4) nafosat motivlari (go'zallikka nisbatan ehtiyojda ifodalanadi).

Ikkinchi guruhga mansub motivlar o'zlarining vujudga kelishi, shartlanganlik manbai bo'yicha umumiylikka ega (boshqariluv xususiyatlariga ko'ra):

- A) keng ijtimoiy motivlar (vatanparvarlik);
- B) jamoaviy (kollektivistik) motivlar;
- V) faoliyatga qaratilgan motivlar (faoliyatli protsessual);
- G) rag'batlanuv (mukofot)

Uchinchi guruh motivlari faoliyat turiga ko'ra:

- 1) ijtimoiy-siyosiy motivlar;
- 2) kasbiy motivlar;
- 3) o'qish va bilishga oid motivlar.

To'rtinchi guruhga motivlar o'zining paydo bo'lishi muddatiga ko'ra umumiylikka molik:

- A) doimiy motivlar;
- B) qisqa muddatli motivlar;
- V) uzoq muddatli motivlar.

Beshinchi guruhga aloqador motivlar o'zining vujudga kelishi quvvatiga qarab:

- 1) kuchli (qudratli) motivlar;
- 2) o'rta sur'atdagi motivlar;
- 3) bo'sh (zaif), kuchsiz motivlar.

Oltinchi guruhga doir motivlar xatti-harakatining vujudga kelishiga binoan:

- 1) real (aniq), voqe motivlar;
- 2) dolzarb (aktual) motivlar;
- 3) potensial (imkoniyat) motivlar kabilar.

Yuqoridagi tasniflashdan tashqari motivlar bosqichli shakllanish xususiyatiga ega bo'lib, ular individual, jamoaviy, sinfiy, etnik, umumijtimoiy singari turlarga ajratiladi. SHuningdek, motiv shaxsni anglash (tushunish) jarayonida motiv funksiyalari o'zgarishi vujudga kelishi tufayli uni turtki beruvchi (undovchi),

yoʻnaltiruvchi, boshqaruvchi shakllari paydo boʻladi. Bizningcha, kasbiy (professional) motivlar quyidagi guruhlariga boʻlinadi:

- 1) ijtimoiy motivlar;
- 2) jamoaviy motivlar;
- 3) protsessual motivlar;
- 4) ragʻbatlantiruvchi motivlar va boshqalar.

Barqaror, yuqori koʻrsatkichli faoliyat uchun:

- 1) ushbu faoliyat uchun yuqori maʼnoli motivlar;
- 2) motivlarning etarli kuchga egaligi;
- 3) motivlarning barqarorligi;
- 4) muayyan tuzilishiga, tizimga, tuzilmaga ega ekanligi;
- 5) motivlarning muayyan ierarxiyasi hukm surishi mumkin.

Motivatsiya muammosini tadqiq etish maʼnoviy va rasmiy dinamik tahlilni taqozo qiladi. Maʼnoviy tahlil ularning mohiyati, tizimi, tuzilishi, shakllanish ierarxiyasi xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan boʻladi. Rasmiy dinamik tahlil esa, ularning kuchi, barqarorligi, turlari, oʻzgarishi, dinamikligi kabi xususiyatlarni oʻlchashga yoʻnaltiriladi.

II. 2-§. Motivatsiya: maqsad, emotsiya va qiziqish

O'quv motivlari deganda talabalar (o'quvchilar)ning o'quv faoliyatining barcha jabhalariga ichki va tashqi yo'nalganligi tushuniladi. Psixologiya fanida o'quv motivlari ikkita katta tupkumga ajratilgan holda tadqiq qilish an'ana tusiga kirgan. Hozir ularning mohiyatiga, tavsifiga oid mulohazalar yuzasidan ma'lumot berishga harakat qilamiz.

I. O'quv faoliyatining mazmuni va uni bajarilish jarayonlari bilan aloqador biluv motivlari.

II. O'zga odamlar bilan talaba (o'quvchi)ning turli ijtimoiy o'zaro ta'sirini aks ettiruvchi ijtimoiy (sotsial) motivlar.

Birinchi turkumga (guruhga) taalluqli motivlar o'z navbatida bir nechta guruhchalarga ajratilib tadqiq qilinmoqda.

1. Talabalarni yoki o'quvchilarni yangi bilimlarni egallashga yo'nalganligini ifodalovchi keng ko'lamdagi biluv motivlari. Ularning darajalari bilan bir-birlaridan tafovut qiladilar. Motivning darajasi esa talabaning yoki o'quvchining bilishga nisbatan qiziqishini ko'rsatkichi bilan belgilanadi.

2. Talabalarning yoki o'quvchilarning bilimlarni egallash usullarini o'zlashtirishga yo'nalganligini ifodalovchi bilishga oid o'quv motivlari.

3. Talaba yoki o'quvchilarni bilimlarni egallash usullarini mustaqil ravishda takomillashtirishga yo'nalganligini ifodalovchi mustaqil bilim olish motivlari.

Ikkinchi turkumni (guruhni) tashkil qiluvchi sotsial motivlar ham bir nechta guruhchalarga ajratilgan holda tadqiq etiladi:

1. O'qishning, bilim olishning zarurat ekanligini tushunishga, jamiyatga naf, foyda keltirishga, olamni bilishga intilishdan iborat keng sotsial motivlar.

2. Obro' (nufuz) ortirishga erishishga, atrofdagi odamlarning ma'qullashiga, ular bilan munosabatga kirishishda muayyan o'rin va pozitsiya egallashga intilishda namoyon bo'luvchi tor doiradagi ijtimoiy (sotsial) motivlar.

3. Talabaning yoki o'quvchining sinfda (kursda) o'z tengdoshlari va o'qituvchilar bilan hamkorlik shakllarini uzluksiz ravishda takomillashtirishga,

hamkorlikning shakllari usullarini tahlil qilishga, ularni tushunib etishga boshqalar bilan muomala hamda muloqotda o'zaro ta'sir o'tkazish istagida ifodalanuvchi hamkorlikning sotsial (ijtimoiy) motivlari.

O'quv motivlarini o'zaro farqlash jarayonida ularning ma'noviy tavsifida namoyon bo'ladi va quyidagi shakllardan tashkil topadi:

- 1) o'qish (ta'lim) o'quvchiga yoki talabaga shaxsiy ma'no kasb etishi;
- 2) talabaning yoki o'quvchining o'quv faoliyatida va uning motivning real ta'sir o'tkazuvchanligi hamda harakatda bo'lishi;
- 3) motivatsiyaning umumiy tuzilishida motivning tutgan o'rni;
- 4) motivning mustaqil vujudga kelishi va tug'ilishi; mustaqil bilim olish jarayonida ichki turtki sifatida namoyon bo'ladi; unga kattalarni yordam berish vaziyatida barpo bo'luvchi tashqi turtki;
- 5) motivning anglanganligi darajasi; talabalar va o'quvchilar har doim ham o'z motivlarini anglash imkoniyatiga ega bo'lmasligi; ehtimol bu qobiliyat o'rta ta'lim darajasida paydo bo'lmasligi mumkin; xuddi shu boisdan o'quvchilarning anglamasliklari ularning oshkora qilmasliklari ko'zga tashlanadi;
- 6) motivning o'quv mashg'ulotlari shakllariga, o'quv fan-faoliyatning barcha ko'rinishlariga yoyilish darajasi kabilar.

O'quv motivlari shakllarining xususiyatlari ham mavjud bo'lib, ular o'ziga xos dinamik tavsiflarni vujudga keltiradi:

- 1) ularning eng muhim va asosiy xususiyati – bu barqarorlikdir. Bu holat shunday ko'rinishga egakim, bunda u yoki bu motiv har qanday o'quv vaziyatlarida uning ko'pchiligidan etarli darajada faollashuvi bilan ajralib turadi:
- 2) motivlar vujudga kelishining shakllaridan biri- bu ularning emotsional bo'yoqlarga ega ekanligi yoki modallikligidir; psixologiyada o'quv motivatsiyalarining salbiy va ijobiyligi bo'yicha bir talay materiallar mavjuddir; salbiy (negativ) motivatsiya deganda talabaning yoki o'quvchining muayyan noxushlik va noqulaylikni anglashdan kelib chiquvchi qo'zg'atuvchi, ya'ni ularni shaxs hisobga olmasa vujudga kelishi mumkinligi tushuniladi; ijobiy (pozitiv) motivatsiya talabaning yoki o'quvchining ijtimoiy ahamiyatli o'qish majburiyatini

bajarish bilan uzviy aloqadordir, ta'lim jarayonida yutuqlarga erishish, yangi bilimlarni egallash, ularni o'zlashtirishning oqilona usullari bilan qurollanish, atrofdagi shaxslar bilan munosabatlarga kirishish jarayonlarining majmuasidan iboratdir;

3) motivlar paydo bo'lishining boshqa shakllari uning kuchida, ifodalanishida, vujudga kelish sur'atida aks etadi; ushbu shakllarning namoyon bo'lishi ko'pincha talabani yoki o'quvchini aqliy mehnat faoliyatida qancha muddat tura olishi, mazkur motiv yordami bilan topshiriqlarni bajarishning miqdori bilan bog'liqdir; chunki motivlarning kechishi, takomillashishi va mustahkamlanishining xususiyatlari ko'p jihatdan ularning ma'noviy tomonlari bilan, chunonchi, dominantligi va harakatchanligiga aloqadordir.

O'quv motivlarida talaba va o'quvchilarning maqsadga yo'naltirilgan maqsadlari, emotsiyalari va qiziqishlarining o'rni namoyon bo'ladi.

Agarda talaba yoki o'quvchida shaxsiy o'quv faoliyatining ba'zi bosqichlarida maqsad qo'ya olish uquvi mavjud bo'lmasa, undagi (sub'ektdagi) motivlar aqliy mehnatni amalga oshirish uchun etarli emasdir. Maqsad-bu talaba yoki o'quvchining o'quv faoliyati tarkibiga kiruvchi ayrim harakatlarni bajarishga yo'nalganligidir. Maqsad shunchaki o'zicha, motivlarsiz talabani yoki o'quvchining o'quv faoliyati va o'quv xatti-harakatining tartibini belgilab bera olmaydi. Ammo bemaqsad eng oqilona motivlar ham his-tuyg'ular, mayllar, turtki darajasida noaniq qolib ketishi mumkin. Chunki motiv harakat ustanovkasi mohiyatiga ega bo'lganligi tufayli izlanish va mazmunini tushunish esa harakatni real bajarishni ta'minlab turadi.

Xuddi shu sababdan talabani yoki o'quvchining motivatsion doirasida maqsad qo'ya olishning qaysi tomonlari (jarayonlari) kiritilishi va qanday ko'nikmalarga saboq oluvchini (sub'ektni) o'rgatish muammosi ta'lim (o'quv yurti) oldida o'z echimini kutadi. Mazkur g'oyani amalga oshirish uchun quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiqdir:

1. O'zini o'zi tarbiyalash (o'zini o'zi namoyon etish) qonuni tarkibiga kiruvchi maqsadlarni saralash (tanlash).

2. O'qituvchi tomonidan qo'yilgan maqsadni qabul qilish va uni tushunish, muallim maqsadini uzoq muddat saqlab turish, unga rioya qilish, o'z xulq-atvorini unga itoat qildirtirish.

3. Maqsadni mustaqil ravishda qo'ya bilish harakatni amalga oshirganga qadar uni fikriy jihatdan tasavvur eta olish ko'nikmasiga ega bo'lish.

4. Maqsadlar majmuasidan ularning bir nechitasi ichidan faqat bittasini tanlab olish va saralash jarayonini dalillash.

5. Real maqsadni noreal maqsad bilan qiyoslash, ularni o'zaro o'rin almashtirish, maqsadga erishishning realligini aniqlash.

6. O'z maqsadlarini aniqlashtirish, oydinlashtirish maqsadida faol tekshirishni amalga oshirish.

7. Maqsadlarning muayyan izchillikka, ketma-ketlikka ega bo'lishi.

8. Maqsadlarning har qaysisiga erishish uchun vaqt va quvvatning zaxiralari, imkoniyatlaridan foydalanish.

9. Ezguga erishuv yoki muvaffaq bo'lish darajasini hisobga olgan holda yangi maqsadlarni qo'ya bilish (muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlik), oldingi maqsad natijasi bilan hozirgisini, ya'ni yangisini qiyoslash.

10. Maqsadni unga bog'liq bo'lgan shart-sharoitlar bilan topshiriqning qo'yilishi uyg'unligiga binoan yaqqollashtirish.

11. Istiqbol maqsadlarini qo'ya olish, ya'ni mazkur vaziyat mohiyatidan chiqib keluvchi maqsadni ko'zlash nazaarda tutiladi.

12. SHart-sharoitga moslashuvchi, egiluvchan maqsadni qo'ya bilish, ya'ni sharoitga, vaziyatga ko'ra maqsadning o'zgarishi va amalga oshish imkoniyati mavjudligi tasavvur qilinadi.

13. Qo'yilgan maqsadni amalga oshirish uchun vositalar va usullar tanlash, maqsadga erishish yo'lida muayyan to'siqlarni engib o'tish.

14. Original, nostereotip, nostandart maqsadlar qo'ya olish.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan mulohazalarning barchasi o'quv faoliyatida talabalarni yoki o'quvchilarni maqsad qo'ya olish (ko'zlash) qobiliyatining tarkibiy qismlaridan iborat bo'lib, mazkur ko'nikmalar o'z tabiati va tuzilishi

jihatdan turli-tumandir, xuddi shu sababli ularning har qaysisi maqsadni realizatsiya qilish jarayonida bevosita ishtirok etadi.

Endi o'quv motivatsiyasida emotsiyaning o'rni masalasining tahliliga o'tamiz.

A.N. Leontevning ta'kidlashicha emotsiyalarning o'ziga xosligi shundaki, ular faoliyat muvaffaqiyatining imkoniyati bilan motivlar o'rtasidagi munosabatlarni o'zlarida aks ettiradilar, ushbu motivlarning realizatsiyasi uchun o'sha his – tuyg'ular xizmat qiladilar. Emotsiyalar inson shaxsiy faoliyatini oqilona baholagunga qadar, shuningdek, motivlarning faollashuvi vaziyatida vujudga keladi. Emotsiyalar ham qanday faoliyat (mehnat, o'yin, o'qish)ning kechishiga muhim o'z ta'sirini o'tkazadi, shu jumladan o'quv faoliyatiga ham. Faoliyatda emotsiyaning boshqaruvchanlik xususiyati shu paytda vujudga keladikim, qaysiki nafaqat u yoki bu faoliyatda u shunchaki qatnashadi, ishtirok etadi, balki uni oldindan payqashda (sezishda) rahnomolik qiladi, talaba yoki o'quvchini faoliyat mohiyatiga kirishishda qo'zg'atuvchi vazifasini bajaradi. Emotsiyalar faoliyat mohiyatiga bog'liq bo'lib, ular o'z navbatida unga ham o'z ta'sirlarini o'tkazadilar. Jahon psixologlarining tajribalariga qaraganda, tor ma'noli yoki xususiyatli motivlar, hatto ularning tashqi va ichki ko'rinishlari faoliyatda ishtirok etsa, dominantlik rolini bajarsa, kuchli emotsionallik vaziyati, emotsional to'yinganlik holati kuzatiladi. YUqori sifatli protsessual (bilish jarayonlariga taalluqli) motiv, anglanganlik, barqarorlik dominantlik qilsa, u holda emotsionallik juda yuzaki ko'rinishga ega bo'ladi.

Endi emotsiyalarning mohiyatiga oid mulohazalar yuzasidan ma'lumot berishga harakat qilamiz:

1. Ijobiy emotsiyalar izlanuvchi (qidiriluvchi) ob'ekt yoki sub'ekt bilan bevosita aloqaga ega bo'lib uning mohiyatiga kirib borishida o'z ifodalarini topadi.
2. Ijobiy emotsiyalar talabaning yoki o'quvchining o'z o'qituvchilari yoki o'rtoqlari bilan bir tekis, samimiy, ishchan o'zaro munosabatlari bilan shartlangandir.

3. Emotsiyalar har qaysi talabaning yoki o'quvchining o'quv faoliyatida muvaffaqiyatga erishishida o'zining (sub'ektning) yuksak imkoniyatlarini tushunishi bilan aloqadordir.

4. Ijobiy emotsiyalar o'quvchining (talabaning) yangi o'quv materiali bilan tanishishda vujudga keladi: o'quv faniga nisbatan bilim oluvchining munosabati emotsional qiziquvchanlik vaziyatigacha hukm surgan bo'lsa-da, keyinchalik o'zaro munosabat fan asosiga vujudi bilan (mukkasidan) berilishni keltirib chiqaradi.

5. Ijobiy emotsiyalar talabalar va o'quvchilar tomonidan bilimlarni o'zgartirishning oqilona usullarini egallash davrida vujudga keladi.

Ta'kidlab o'tilgan emotsiyalar majmuasi ta'lim jarayonida emotsional komfort tabiatni, tuyg'usini hosil qiladi va muvaffaqiyatga erishishni ta'minlab turadi, xolos. SHu narsani ta'kidlab o'tish joizki, talabalar yoki o'quvchilar ijtimoiy-psixologik muhitda emotsional barqarorlikka nisbatan maqtoov o'qish faoliyatida qotib qolishni yuzaga keltiradi, ularni rivojlanishdan to'xtashi sari etaklaydi, natijada "o'sishda biqqlikni" hosil qiladi.

Xuddi shu bois ta'lim jarayonida salbiy modallikka ega bo'lgan emotsiyalar ishtirok etishi lozim. Misol uchun qoniqmaslik tuyg'usi salbiy emotsiya sifatida faoliyatni amalga oshirishning yangi usullarini qidirishning manbai rolini bajaradi.

Psixologiya fanida to'plangan materiallarga binoan o'quv faoliyatining motivatsion tuzilishi quyidagi jabhalar yordami bilan aniqlanadi: saboq oluvchilarning o'quv faoliyati xususiyati bilan, uning tuzilishi yoyiqligi va mukammalligi, o'quv faoliyati tarkibiy qismlarining shakllanganligi o'quv jarayonida boshqa odamlar bilan o'zaro munosabatida sub'ekt uchun ta'lim muayyan ma'no kasb etishida, o'quv motivlari xislatlari, maqsadlarining pishib etilganligi, emotsiyalarning xususiyatlari bilan oydinlashadi.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni keltirish mumkinki, yuksak insoniy, umumbashariy his-tuyg'ular fuqarolar xatti-harakatlarining, fe'l-atvorlarining regulyatori (boshqaruvchisi) vazifasini (funksiyasini) bajara boshlagan daqiqalardan e'tiboran umumiy, ijtimoiy-psixologik negizlarga asoslanuvchi ommaviy harakatlar, qarashlar, g'oyalar, motivatsiyalar namoyon bo'ladi va har bir insonda shu umumiyat ishiga o'zining shaxsiy ulushini qo'shish istagi, mayli, xohishi vujudga keladi. Mamlakatimiz fuqarolarining yurtimizda va uning tashqarisida sodir bo'laetgan ijtimoiy, ijtimoiy-psixologik voqelikka, shaxslararo va millatlararo muomala xususiyatiga, maromiga, umuminsoniy hamda milliy qadriyatlarga nisbatan munosabatlari ijtimoiy muhitni (makro, mikro, mezo) harakatlantiruvchi kuchni o'zida mujassamlashtiradi.

Xalq ommasining jamiyatga, tabiatga, yakka shaxsga nisbatan munosabatlari ehtiyojlarda, xohish-istaklarda, qiziqishlarda, xulq-atvor (faoliyat, muomala) motivlari yoki motivatsiyalarida, iymon-e'tiqodda, qarashlarda, g'oyalarda, milliy an'analarda o'z ifodasini topadi. Munosabatlar negizida esa inson ongidagi timsollar, tasvirlar, tasavvurlar, taassurotlar, kechinmalar, irodaviy xislatlar, xarakter sifatlari, yuksak his-tuyg'ular, aql-zakovat, barkamol shaxsning barqaror fazilatlari yotadi. Milliy istiqlool mafkurasining mustaqilligi, mustahkamligi, barqarorligi, qudratlilik mamlakatimiz fuqarolarining istagi, intilishi, faoliyat rejasi, xulq-odobi, muomala maromi, yaqqol vazifasi bilan bevosita uyg'unlashuviga bog'liq.

Shuni ta'kidlash joizki, insonning ijtimoiy hodisalarga, holatlarga, voqeliklarga nisbatan munosabatining psixologik mohiyati uning ongli, faol, yaxlit, maqsadga yo'naltirilgan, ijtimoiy shartlangan shaxsiy tajribasining tizimiga asoslangan muvaqqat aloqalarining hamda sub'ktiv jabhalarning majmuasidan iboratligidadir.

Hodisa va voqeliklarning fuqaro (omma, xalq) tomonidan baholanishi va berilgan bahoning oqilligi, haqchilligi yoki uning his-tuyg'ular, emotsional kechinmalar tazyiqi ostida amalga oshirilganligi kayfiyat, shijoat,

asabiylashish(affekt), zo'riqish, tanglik(stress) jarayonlarida yuzaga keladi. Ijtimoiy munosabatlar bilan g'oyalar o'rtasidagi jarayonlarning o'zaro muvofiqligi, qarama-qarshiligi, nizoli, mojaroli xususiyatga ega ekanligi ommaviy baholashning asosiy ko'rsatkichi vazifasini bajaradi. Ijtimoiy hodisalar va holatlarni baholash yakka shaxs, guruh, jamoa tomonidan taqlid (imitatsiya), yuqtirish, yuqish, ishontirish, ta'sir o'tqazish kabi psixologik vositalar orqali ijtimoiy turmushda amalga oshadi. Insonning biron-bir narsaga yoki holatga taqlid qilishi ixtiyoriy tarzda vujudga kelsa, ommaviy yuqish esa ixtiyorsiz ravishda hosil bo'ladi. Tabiatda yoki jamiyatda sodir bo'lgan va bo'layotgan voqelik yuzasidan dalillar keltirish, bildirilgan fikrni mantiqiy shakllar(hukm, xulosa, tushuncha) yordami bilan asoslash tufayli shaxs shu narsaga ishontiriladi, buning natijasida fikrlarda (mulohazalarda) umumiylik ro'y beradi.

Yakka shaxsga yoki muayyan guruhga ta'sir o'tkazishdan iborat vosita orqali hodisalarga baho berishda rag'batlantirish, jazolash, qo'rqitish, homiylik va vosiylik qilish, va'da berish yo'llaridan foydalaniladi. YUzaga kelgan, sodir bo'lgan hodisa yoki holatni ommaviy tarzda baholash jamoa a'zolarining aql-zakovatiga, ma'naviy-madaniy darajasiga, mentalitet ko'rsatkichiga, qarashlariga, e'tiqodlariga, fikrlashning mustaqilligiga, ijodiyligiga, fikrning chuqurligi, teranligi va tezligiga, favqulodda yuzaga kelgan yaqqol sharoitga bog'liqdir.

Ijtimoiy munosabatlar omma orasidagi stereotiplar, assotsiatsiyalar, identifikatsiyalar, refleksiya va antitsipatsiyasiyaga asoslanadi. Ommaning ijtimoiy va shaxsiy tajribasi bilan diniy ta'limot o'rtasidagi uzviy aloqalar ham o'zaro munosabatlar mohiyatiga ta'sir etadi. SHaxslararo, millatlararo munosabatlar majmuasi esa motivatsiya(motiv) negizda mujassamlashadi. Oddiy turtki sifatidagi motiv takomillashuv evaziga motivatsiyaga(motivlar majmuasiga) o'sib o'tadi. Faoliyat, xulq-atvor, muomala motivi,motivatsiyasi regulyator funksiyasini bajarib, faollik manbai, qat'iylilik ifodasiga aylanadi. Motiv anglanilmagan(biologik), anglanilgan(psixologik verballik, noverballik(ijtimoiy psixologik) bosqichlari(darajalari)ga egadir. Motivatsiya shaxsiy, ijtimoiy, kasbiy, etnik, gender, status xususiyatlaridan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Inson va olam: “Psixologiyaning nazariy va metodologik muammolari” kitobi. M.,1969, 370-bet;
2. Madsen K.B., T.Heories 1968, 46-bet.
3. Aseev V.G. Motivatsiya povedeniya i formirovaniya lichnosti. M.Izd-vo “Mo‘sl”, 1976.
4. Vasilev I.A. , Magomed-Eminov M.SH. Motivatsiya i kontrol za deystviem. Izd. MGU, 1991.
5. Vilyunas V.K. Psixologicheskie mexanizmo‘ biologicheskoy motivatsii. Izd. MGU, 1986.
6. “Umumiy psixologiya” :G‘oziyev .Toshkent – 2008 yil
7. “Ijtimoiy psixologiya” Akramova. Toshkent -2009 yil
8. “Umumiy psixologiya” Zufarova. Toshkent-2009 yil
9. Xayns Xekxauzen, motivatsiya i deyatelnost, t.1, M., 1986.
10. Eksperimentalno‘e issledovaniya individualno‘x psixologicheskix osobennostey shkolnikov kak sredstvo preduprejdeniya neusvaemosti. Kuybo‘shev, 1976.
11. YAkobson P.M. Psixologicheskie problemo‘ motivatsii povedeniya cheloveka. M., Izd-vo “Prosveshenie”, 1969. – 137 s.
12. Jurnal “Voprosi psixologii” №6, 1981., №5, 1980
13. Ziyouz.com manbalari
14. Google. Com